



“DETEKTIV ADABIYOTDA AYOL OBRAZI: ‘BOGEMIYA MOJAROSI’ VA ‘YOZ YOMG‘IRI’ ASARLARI ASOSIDA QIYOSIY TAHLILI”.

Vasijonova Surayyo Muqumjon qizi.

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi.

Annotasiya: Ushbu maqolada Artur Konan Doyle "Bogemiya mojarosi" va O‘lmas Umarbekovning "Yoz yomg‘iri" asarlari detektiv janrning ikki xil milliy va badiiy yo‘nalishini ifodalaydi. Arthur Konan Doyle hikoyasida mantiqiy tahlil va intellektual kurash ustun bo‘lib, Sherlock Holmes hamda Irene Adler obrazlari orqali aql-zakovat qarama-qarshiligi ochiladi. O‘lmas Umarbekov qissasida esa jinoyatni ochish jarayoni bilan birga insoniy munosabatlar va ruhiy kechinmalar chuqur yoritilib, ayol obrazlari syujetda muhim o‘rin egallagani ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: dedektiv asarlar, ayol obrazi, muhabbat, vafo, aql-zakovat, mustaqil fikr.

Detektiv adabiyot — jinoyat, sir yoki jumboq markazida qurilgan hamda uni mantiqiy tahlil, kuzatuv va dalillar asosida ochish jarayoni tasvirlanadigan hikoya, qissa va romanlardan iborat adabiy janrdir. Bu janrda syujetning asosiy harakatlantiruvchi kuchi — noma‘lum voqeani ochish, jinoyatchini aniqlash va haqiqatga erishishdir. Detektiv janrining asoschisi sifatida Edgar Allan Poe e‘tirof etiladi. Uning *The Murders in the Rue Morgue* (“Morg ko‘chasidagi qotillik”) asarida ilk bor mantiqiy tahlil orqali jinoyatni ochadigan qahramon — Ogyust Dyupen obrazi yaratilgan. Bu asar detektiv adabiyotning asosiy qonuniyatlarini — kuzatuvchanlik, deduksiya va tafsilotlarga e‘tibor berishni shakllantirib berdi. Klassik detektiv adabiyotda jinoyatni ochish qat‘iy mantiqiy asosda olib boriladi. Bu yo‘nalishda Artur Konan Doyle, G. K. Chesterton, Emile Gabori, Agata Kristi va Rex Stout kabi ijodkorlar muhim o‘rin tutadi. Ularning asarlarida detektiv qahramon



yuqori aql-zakovat, kuzatuvchanlik va tahliliy fikrlash orqali murakkab jinoyatlarni fosh etadi. Detektiv janr vaqt o'tishi bilan yangi yo'nalishlar bilan boyidi. XX asrda ijtimoiy va ruhiy omillarni chuqur yoritishga e'tibor kuchaydi. O'zbek adabiyotida ham detektiv janr rivojlangan. Bu borada Shuhrat, „Bir kecha fojiasi“; O'lmas Umarbekov, „Yoz yomg'iri“; Omon Muxtor, „Mo'jiza“; Tohir Malik, „Shaytanat“ romani o'zbek detektiv adabiyotining eng yirik va mashhur namunalaridan biri bo'lib, unda jinoyat dunyosi, ijtimoiy muammolar va insoniy taqdirilar keng yoritilgan.

Adabiyotda ayol obrazi — shaxsining tashqi ko'rinishi, ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, ijtimoiy o'rni va hayotiy qarashlarini badiiy vositalar orqali ifodalovchi obrazdir. U faqatgina syujet ishtirokchisi emas, balki asarning g'oyaviy mazmunini ochishga xizmat qiladigan muhim badiiy unsur hisoblanadi. Dedektiv asarlarda ham ayol obrazi orqali turli xil kechinmalarni, mehr, muhabbat, sadoqat, vafo, aql-zakovat, tafakkur va mustaqil fikrlash qobiliyati aks ettirib beradi. Bunga misol qilib, Arthur Konan Doylening *A Scandal in Bohemia* (“Bogemiya mojarosi”) hamda O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" dedektiv asarlarida ayol obrazlarini uchratamiz. Ammo asardagi ayollar bir-biridan tubdan farq qiladi.

“Bogemiya mojarosi” asarida markaziy ayol obrazi — Irene Adler hisoblanadi. U detektiv adabiyotda an'anaviy ayol tasviridan keskin farq qiladi. Irene Adler mustaqil va erkin fikrlaydigan ayol, yuqori intellekt va strategik tafakkur egasi, jamiyat qoidalariga ko'r-ko'rona bo'ysunmaydigan shaxs tarzida tasvirlaydi. Irene Adler obrazi orqali Arthur Konan Doyle viktoriya davrida shakllangan “ayol — zaif va himoyaga muhtoj” degan stereotipni buzadi. U erkaklarga qaram emas, balki o'z hayotini o'zi boshqaradi. Adler professional faoliyatga ega bo'lgan, jamiyatda o'z o'rnini topgan va eng muhimi — vaziyatni tahlil qilib, oldindan strategiya tuza oladigan ayol sifatida gavdalanadi.



Asarda uning aql-zakovati ayniqsa Sherlock Holmes bilan qarama-qarshilikda yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Xolms mantiqiy fikrlash va kuzatuvchanlik borasida tengsiz bo'lsa-da, Irene Adler uning usullarini ilg'ab oladi va unga qarshi o'ziga xos "o'yin" olib boradi. U nafaqat Xolmsning rejasini fosh qiladi, balki uni ortda qoldirib, vaziyatni o'z foydasiga hal etadi. Bu holat ayol obrazining faqat hissiyotga beriluvchan emas, balki yuqori darajada analitik tafakkurga ega ekanini ko'rsatadi. Bundan tashqari, Irene Adlarning xarakterida axloqiy mustaqillik ham muhim o'rin tutadi. U o'z harakatlarini shunchaki manfaat yoki hiyla asosida emas, balki o'z qadriyatlari asosida belgilaydi. Asar oxirida u qasos yoki zarar yetkazish yo'lini tanlamaydi, aksincha, vaziyatdan oqilona chiqib ketadi. Bu esa uning obrazini oddiy "hiylakor ayol" darajasidan ko'tarib, murakkab va ko'p qirrali shaxs sifatida namoyon qiladi. Bundan tashqari, Irene Adlarning xarakterida axloqiy mustaqillik ham muhim o'rin tutadi. U o'z harakatlarini shunchaki manfaat yoki hiyla asosida emas, balki o'z qadriyatlari asosida belgilaydi. Asar oxirida u qasos yoki zarar yetkazish yo'lini tanlamaydi, aksincha, vaziyatdan oqilona chiqib ketadi. Bu esa uning obrazini oddiy "hiylakor ayol" darajasidan ko'tarib, murakkab va ko'p qirrali shaxs sifatida namoyon qiladi. Irene Adler obrazi nafaqat Sherlock Holmes uchun, balki o'quvchi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u ayolning aqlan, ijtimoiy va ruhiy jihatdan erkak bilan teng, hatto ayrim vaziyatlarda ustun bo'la olishini ko'rsatadi. Shu sababli Xolms uni oddiy ayol sifatida emas, balki hurmat bilan "u ayol" deb ataydi — bu esa uning nazarida Irene Adlarning mutlaqo alohida o'rin egallaganini bildiradi.

"Yoz yomg'iri" asarida ayol obrazi boshqacha — ko'proq ruhiy-psixologik va hayotiy jihatdan tasvirlanadi. Asardagi ayol ya'ni Munis nozik his-tuyg'ularga ega, ichki iztiroblar bilan yashaydi, ijtimoiy muhit va sharoit ta'sirida shakllanadi. O'lmas Umarbekov ayol ruhiyatini chuqur ochishga intiladi. Ayol faqat voqea ishtirokchisi emas, balki insoniy kechinmalar, ichki kurash va hayotiy tanlovlar markazida turadi. Munira Shaxuddinova qissaning boshlanishida oddiy inson —



tramvay haydovchisi sifatida ko‘rinadi. Ammo yozuvchi uni faqat kasbiy jihatdan emas, balki kuzatuvchan, hushyor va mas‘uliyatli ayol sifatida tasvirlaydi. U o‘z ishiga jiddiy yondashadi, bu esa uning xarakteridagi intizom va mas‘uliyatni ko‘rsatadi. Tramvaydagi voqealarga befarq emasligi, yo‘lovchilarni sinchiklab kuzatishi uning ichki ziyrakligini ochib beradi. Muniraning tramvayida paydo bo‘lgan shubhali shaxs — “temiryo‘lchi kiyimidagi shaxmurtli kishi” bilan bog‘liq epizodlar syujetni harakatga keltiradi. Shu jihatdan u: voqealarning guvohi va bilvosita detektiv jarayonning boshlovchi nuqtasi hisoblanadi. Munis Saidova — Rahim Saidovning rafiqasi sifatida asarda muhim ijtimoiy va ma‘naviy qatlamni ifodalaydi. Qissa bosh qahramoni va fojiviy taqdir egasi. Asarda Munis qahramonini tashqi tomondan bosiq ko‘rinsa-da, uning qalbida turli kechinmalar mavjud shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Turli xil kiyim, tilla taqinchoqlar va qimmatbaho sovg‘alarga o‘chligi turmush o‘rtog‘iga xiyonat qilishgacha olib boradi. Dunyoning o‘tkinchi narsalariga berilish oqibatida hayotiga fojealiy yakun topadi. Ammo Munisning bir jihatiga ham e‘tibor ber lozimki, o‘z turmush o‘rtog‘iga yomon ishlarni qilsada, oxirgi lahzalarda Rahim Saidovning ixtirosini sotmadi. O‘z bo‘lsa-da qalbida muhabbat borligini ko‘rsatib bera olgan. Ayol obrazlarini faqat bitta qolipda emas, balki turli ijtimoiy, ruhiy va hayotiy ko‘rinishlarda tasvirlaydi. Natijada asar nafaqat detektiv, balki chuqur psixologik va ijtimoiy mazmunga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ayol obrazi adabiyotda inson tabiatining nozik, murakkab va chuqur qatlamlarini ochib beruvchi, jamiyatdagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi hamda asarning badiiy qiymatini oshiruvchi muhim obrazlardan biridir. Detektiv adabiyot oddiy jinoyat hikoyasi emas, balki mantiqiy tafakkur, psixologik tahlil va jamiyat muammolarini o‘zida mujassam etgan murakkab adabiy hodisadir. Uning taraqqiyoti davomida janr shaklan va mazmunan boyib, bugungi kunda ham eng ommabop va o‘quvchini jalb etuvchi yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Sherlock Holmes hikoyalari — Artur Konan Doyle, turli to‘plam nashrlari (1892–1927-yillar).
3. Yoz yomg‘iri — O‘lmas Umarbekov, Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980-yillar.
4. O‘lmas Umarbekov. Tanlangan asarlar. Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2000-yillar.